

**BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARINI O`QITISH JARAYONIDA  
KOMPYUTER TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK  
IMKONIYATLARI**

**Safoyeva Mohlaroyim**

*Osiyo xalqaro universiteti 3BT-23 guruhi talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola kompyuter texnologiyalarining ta’lim jarayonida qo’llanilishi, uning afzalliklari va istiqbollarini yoritib, ta’lim tizimini yanada rivojlantirish uchun zarur bo’lgan strategik yondashuvlarni ko’rsatadi. kompyuter texnologiyalarining boshlang’ich sinf o’quvchilari ta’lim jarayonida qo’llanilishi darslarni interaktiv, qiziqarli va samarali tashkil etishning ajralmas qismi sifatida ko’rsatiladi.

**Kalit so’zlar:** Kompyuter texnologiyalari, interaktiv ta’lim, multimedia, boshlang’ich sinf, didaktik imkoniyatlar, raqamli savodxonlik, axborot texnologiyalari, ta’lim samaradorligi, shaxsiy rivojlanish, o’qituvchilar malakasini oshirish.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan o’qituvchilarning darslarga ijodiy yondashishini ta’minlash, ular faoliyatiga ilg’or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o’quvchilarning dastlabki bilim egallash poydevori mustahkam bo’lishi, barcha fanlarni o’zlashtirishga qiziqishini oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etib kelmoqda. Hozirgi davr o’qituvchi va o’quvchi oldiga katta talablar qo’ymoqda, bu talablarning eng asosiysi - darsning samaradorligi, uning sifatliligi, o’quvchilarning bilim va ko’nikmalariga, makteblardagi turli xil o’quv mashg’ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o’quvchilarni turli bilim va ko’nikmalarni egallab olishidir. Bugungi kunda ta’lim jarayonini to’g’ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o’rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimedia, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo’lishiga ko’mak beradi, buning uchun esa o’qituvchi o’z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman» deya o’ziga savol berishi ya’ni, an’anaviy ta’limdan qochib, noan’anaviy ta’lim berishga intilishi lozim.

O’quv mashg’ulotlari davomida pedagogik jarayon o’z navbatida, o’qituvchi darsni zamonaviy tashkil etishi, takomillashtirishi o’quvchilarni mustaqil fikrlashga, axborotlarni to’g’ri va asosli qidirib ularni tahlil qilishi o’quvchilarni fikrlashga va muammoli vaziyatlardan chiqishga asosiysi xulosa qilishni o’rgatadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o’quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta’sir etadi. O’quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o’quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o’zlashtirilishiga yordam beradi. O’quv mashg’ulotlarini mavzu doirasida kompyuter texnologiyalari asosida testlarni yechish to’g’ri javobni tahlil qilishi, o’qituvchining darsni samarali hamda ta’lim sifatini yanada rivojlantirishiga o’quvchilarni zukko va ilmlli bo’lishlariga zamin yaratadi. Boshlang’ich sinflarda turli fanlarni axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan asosli

foydalanim dars o’tish o’quvchilarni ta’lim jarayonida ijobiy motivatsiyalar berish, darsda bajariladigan ish hajmi ham 1.5 – 2 baravarga oshirish, bilimni nazorat qilish o’quvchilarning faoliyatida izlanish, ijod qilish samaradorligini oshiradi. O’quv jarayonlarida o’quvchining berilgan vazifasini anglab olish motivini kuchaytiradi. Sinfdagi o’quvchilarning darsga faol qatnashishi ta’minlanadi. Boshlang’ich ta’limda zamonaviy axborot kommunikatsiyalarining keng joriy etilishi fan sohasida axborotlashtirishni, o’quv faoliyatini intellektuallashtirishni, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni ta’lim tizimini infratzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi. Darsni zamonaviy texnologiyalar assosida tashkil qilish bola ruhiyatiga yaqinroq bo’ladi. O’quvchilarning o’quv materiallarini o’zlashtirishga bo’lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo’zg’atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo’lib, bu o’qituvchi va o’quvchilarning o’zaro ichki yaqinlashuvdir. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida sinfdan tashqari ishlarda o’quvchilar orasida kitobxonlikni targ’ib qilish, badiiy faoliyat bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali yo‘nalishi hisoblanadi. O‘qish va ona tili, matematika va tabiatshunoslik kabi fanlar ham o’quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun juda ko‘p imkoniyatlarga ega. Sport mashg’ulotlari bilan shug’ullanish esa o’quvchi yoshlarni sog’lom shaxs bo’lib yetishishlariga imkon beradi. Badiiy o‘qish darslarida o’qituvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga bog‘liq ravishda, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni turli yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Sinfdan tashqari darslarda o’quvchilar orasida axborot kommunikatsiya texnologiyalari assosida ibratli multifilmarni targ’ib qilish yoki bolalar o’rtasida turli musoboqalarni zamonaviy texnologiyalar bilan o’tkazish ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga katta xissa qo’sham deb o’ylayman. Ta’lim o’qituvchi va o’quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo’lib, shu jarayonda shaxsnинг taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o’qituvchi o’z bilimi, ko’nikma va malakalarini mashg’ulotlar vositasida o’quvchilarga yetkazadi, o’quvchilar esa uni o’zlashtirib borishi natijasida undan foydalinish qobiliyatiga ega bo’ladi. O’rganish jarayonida o’quvchilar o’zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalinishadi, ya’ni o’zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishslash hamda amaliyotga tatbiq etishda o’ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta’lim jarayonida o’qituvchi va o’quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o’quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta’lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ma'lumki, ta’limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o’quv mashg’ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo’llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Isoqova A.SH. Axborot texnologiyalaridan ta’lim jarayonini tashkillashtirishda foydalinish.– Termiz:2021. Maqola-2181/1601. 823b

5-Mart, 2025-yil

2. Bisenbayev I.Q, Sagidullayev N.I, Tilepova A.A, Vaisova U.M. “ O’qituvchilarni axborot texnologiyalaridan foydalanishga o’rgatish va samaradorligini oshirish yo’llari”.– Nukus:2022. Maqola-2181/1781. 245b

3. Xaydarova N.B, Nasrullayeva Sh, Igamberdiyeva N. “Boshlang`ich ta’limda axborot texnologiyalarini qo`llashning afzalliklari va ulardan foydalangan holda hal qilinishi kutilayotgan muommolar”. –Qashqadaryo:2023. Maqola-7/100. 783b

4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

6. [www.kitobxon.uz](http://www.kitobxon.uz)

